

Ona yurting - oltin beshiging

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

2006-yil 25 - sentabr - 1 - oktabr N:39 (66580)

## O'QITUVCHIM

1 Oktabr - O'qituvchilar va murabbiylar kuni

— «Alifbe»dan o'rin olgan,

Bir kam o'ttiz harflarni

«Alla», «Anor», «Bahor», «Bayroq» —

kabi oddiy gaplarni

O'rgatgan kim?

— O'qituvchim.

— Sodda, ziyrak, biroz sho'xmiz,

Qiziquvchan, sertalab.

«Lo-la», «Osh, ol» so'zlarini,

Toqat bilan erkalab

Yozdirgan kim?

— O'qituvchim.

— Harf tanitib, burro qilgan,

Anvarni, Sanobarni.

Kim o'rgatgan karralarni,



To'rt amal, barobarni?

Ayt-chi Azim?

— O'qituvchim.

Kitobni shar, o'qir Hulkar,

Rosti gap ishonmadik.

Biz "Alifbe" bayramini,

Juda zo'r nishonladik.

— Ustozing kim?

— O'qituvchim.

Doim shaymiz: "Labbay" deb  
Ustozlar xitobiga.

Bolajonlar navbat keldi,

Endi "O'qish kitobi"ga.

— O'rgatar kim?

— O'qituvchim.

Tursunboy ADASHBOYEV.



## Mustaqil yurt bolalari iqtidorlidir

Aziz o'quvchilar, «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bilan hamkorlikda iqtidorli yoshlarning «Kelajak ovozi – 2006» an'anaviy Respublika tanlovi o'tkazilayotganidan xabaringiz bor-a? Yurtimizdag'i iqtidorli yoshlarni kashf etish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mazkur tanlovni muattar, anbar gullardan saralangan xushbo'y guldaстaga qiyoslagim keldi. Chunki uning nominatsiyaları bugungi kun yoshlarini qiziqtirayotgan qariyb barcha yo'naliшlarni o'z ichiga oladi.



Dastlab 2005-yilda o'tkazilgan mazkur tanlov yurtimiz yoshlarida juda katta qiziqish uyg'otgandi. Uning saralash bosqichlarida mamlakatimizning turli hududlarida yashovchi uch ming nafardan ziyod yosh iste'dod sohiblari qatnashib, shulardan 40 nafari turli nominatsiyalar bo'yicha g'olib deb topilgandi.

Yaqinda bo'lib o'tgan «Kelajak ovozi» yoshlar mega-tanloving Toshkent shahar saralash bosqichlari ham ko'tarinki ruhda kechdi. Iqtidorli o'quvchilar quyidagi yo'naliшlар bo'yicha bahslashdilar:

«Badiiy va amaliy san'at» nominatsiyasida haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, tasviriy san'at, kulolchilik san'ati yo'naliшi bo'yicha 200 nafar, «Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari» nominatsiyasida kompyuter uchun yangi dasturlar yaratish, veb-dizayn, telekommunikatsiya sohasidagi yangiliklar yo'naliшi bo'yicha 95 nafar, «Ratsionalizatorlik takliflar, texnik loyihalari va ishlasmalar» nominatsiyasi bo'yicha 23 nafar, «Ijtimoiy loyihalari va biznes reja» nominatsiyasi bo'yicha 59 nafar, «Badiiy publisistik ijod» nominatsiyasi bo'yicha 259 nafar, dizayn nominatsiyasi bo'yicha 44 ariza topshirishgandi.

## XUSHBO'Y GULLAR DASTASI



«Me'morchilik va  
nafar, ja'mi 699 ishtirokchi



esa o'z kuy va  
bilan muborak-Saralarning  
ning anqlianib,  
nafar ishtirok-bosqichiga.  
Yaratuvchanlik va  
bilan yo'g'rilgan yoshlarning ana  
ham qatnashdik. G'oliblarni samimiy qutlab,  
gan suhabatimizni 2 - betda o'qisiz.

Har bir yo'naliш bo'yicha shu soha mutaxassislari, ko'zga ko'ringan jamoat va san'at arboblaridan iborat hakamlar xay'ati a'zolari taqdim etilgan ishlarni nomzodlarning ijro mahorati, soha asosiy talablaridan xabardorlik va har bir nominatsiyasining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda qo'yiladigan qo'shimcha talablar asosida baholadilar.

Kuni kecha Toshkent shahar bosqichida I, II, III o'rnlarni olishga muvaffaq bo'lgan 61 nafar yosh iste'dod sohiblari maxsus diplomlar bilan taqdirlandilar. O'z asarlarida milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtira olgan 50 nafar iqtidorli yoshlar sertifikat olish baxtiga tuyassar bo'ldilar.


G'oliblarni har kim o'zicha: kimdir gullar  
bilan, yana kimlardir olqishlari bilan,  
yosh xonandalar, estra-

damizning  
y o r q i n  
yulduzlar  
qo'shiqlari  
bod etishdi.  
ham saralari-  
tanloving 27  
chisi Respublika  
yo'llanma olishdi.  
izlanuvchanlik ruhi  
shu bayramida biz  
ayrimlari bilan qil-



**(Davomi. Boshi 1 - betda)****Jasur HAMROYEV, ToshPMI talabasi:**

«Kelajak ovozi» yoshlari mega-tanloving Toshkent shahar bosqichida «Badiiy publitsistik ijod» nominasiyasi bo'yicha qatnashib, 1-o'rinni qo'lga kiritdim. Bu o'z-o'zidan bo'lgani yo'q albatta. Chunki mazkur tanlovdan ishtirok etgan yigit-qizlarning bari o'ta iqtidorli, g'alaba sari intiluvchan yoshlari edi. Ommaviy nashrlardagi minglab madaniy, siyosiy ijtimoiy maqolalarim, shuningdek, o'zim yaratgan ko'ngilochar axborot saytim munosib baholanib, g'olib bo'lganimdan baxtiyormen.

**Lobar JUMADILOVA, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasining 1-bosqich talabasi:**

Mazkur iqtidorlilar bellashuvida an'anaviy ijrochilik yo'nalihsida qo'shiq kuylab, «Badiiy san'at» yo'nalihsida bo'yicha ishtirok etdim va 1-o'ringa loyiq topildim.

Tanlovdan talaygina do'stlar orttirdim, bilmaganlarimni o'rgandim.

Davlatimiz tomonidan

biz yoshlarning iqtidorimizni namoyon qilishimiz uchun shunday sharoitlar yaratilib, iqtidorlarga keng yo'l ochib berayotganidan behad mammunman. Yana, konservatoriada bizga puxta bilim berayotgan professor o'qituvchilarimizga, mutaxassislik bo'yicha ustozim professor R.

Ta'zim

# SEN MA'RIFAT QUVOSHISAN, MUALLIM!

*Ilk bor məktəb ostonasiga qadam qo'ygan kūnlaringizni xotirlashni istaysizmi? Mittigina qo'llaringizdan ushlab, bilimlar qasri tomon yetaklagan birlinchi o'qituvchiningiz, bilimiga mehrini qo'shib sizga ularshgan, mustaqil hayotga uchirma qilgan ustozlaringiz bilan diydorlashishni-chi? Unday bo'lsa, qadrondon məktəbingiz tomon oshiqing, qalbi qaynoq, mehri ummonlar qadar ustoz va murabbiylaringizga ehtirom ko'rsating. Chunki hademay bu saxiyqalb insonlarning kasb bayramini nishonlaymiz.*

Ana, ko'zları hayratga to'lib, atrofga havas va hayajon yotgan jajjigina bolakay. Uning qo'lidan yetaklab, sinf yo'l boshlagan inson esa o'sha, ko'p yillik mehnatlari evaziga ko'plab ajinlar bilan mashaqqat kasbining zalvorli yuki buki, sochlariqa oq daryo muallimingiz. Yuzlaridagi rining



o q  
tolaning  
r a m z i y  
ma'nosi bor.  
Qay biri kim-  
n i n g d i r  
tutinganidan  
oqargan bo'lsa, boshqasi shogirdining muvaffaqiyatidan nishona. Shuning uchun ham u aslo nolimaydi. Bunga fursati ham yo'q. Go'yo og'ir karvondek hamisha yo'lda, ezgulik ziyyosin taratmoq payida.

Bolalar yuragidek zabardast tog'ning eng viqorli cho'qqilarini zabit etmoqqa qodir bo'lgan buyuklarning buyugidir u!

Men ana shunday insonlarning ko'pini bilaman. Bugun esa ulardan biri haqida batafsilroq to'xtalishga jazm etdim. Umrining qariyb 30 yilini ziyo maskanida o'tkazayotgan ustozim Shoira opa Sulaymonovani o'z kasbining fidoyisi desam, mubolag'a qilmagan bo'laman.

Ish faoliyatini oddiy o'qituvchilikdan boshlagan ustoz hozirda poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan Amir Temur nomli 112-məktəbning jonkuyar rahbaridirlar.

- Bu maskanga ilk bor kelganimda hozirgiday shart-sharoitlar yo'q edi, - deya xotirlaydilar Shoira opa, yangi ish boshlagan kūnlarini xotirlab. - Minglab o'quvchilarini o'z bag'riga olgan mana shu salobatli bino o'rnda bir qavatlari eski məktəb binosi bo'lardi. Birinchi darsimni o'zbek sinflariga rus tilidan dars berishdan boshlaganim kechagidek yodimda. Məktəbimiz o'quvchilarining soni ortib, sinf xonalari yetishmay qolgach, o'qituvchilarining sa'y-harakati bilan 3 qavatlari yangi məktəb binosi qurildi. Bu xayrli ishga qanchadan-qancha zahmatkash insonlarning mehnati singmagan deysiz? Eh-he, sanasam, hisobidan yanglishib ketaman. Farzandlarimiz uchun shart-sharoit yarataylik deya məktəbimizning sobiq rahbari Olim Xo'jayev boshchiligidagi barcha o'qituvchilar teng ter to'kishgan. Avvalgi ko'rim siz bino o'rnda bolalar uchun sport maydonchasi barpo etildi. Keyinchalik o'sha yerga ham o'quv binosi qurib, mustaqilligimizning 5 yilligi arafasida to'la foydalanishga topshirildi. O'sha yili bu ikki bino umumlashtirilgan holda Amir Temur nomidagi 112-məktəb nomini oldi.

Bugun esa məktəbimiz yanada chiroy ochgan. Yaqinginada qayta ta'mirdan chiqdi. Bitiruvchilarimizning aksariyati oliy o'quv yurtlari, turli ilm maskanlari talabalari qatoridan o'rin olishayotganidan boshimiz ko'kka yetadi. Sport sohasida qator yutuqlarga erishib kelayotgan o'quvchilarimiz ham bisyor. Bu yil 163 nafar o'g'il-qizni birlinchi sinflarga qabul qilib oldik. Endi ular yangi ta'mirdan chiqqan, barcha qulayliklarga ega məktəbda tahlil olishadi. Zero, o'quvchilarimizning ta'lim-tarbiya olishlari uchun yetarlicha shart-sharoit yaratish har birimizning sharafli burchimizdir...

Ustoz juda kamtarin inson bo'lganlari uchun ham o'zları haqida ko'p gapirmadilar. Ko'p yillik samarali mehnatlari munosib taqdirlanib, olgan qator mukofotlari haqida ham gapirib o'tishni joiz topdik. 1996-yilda Prezidentimiz farmoniga binoan «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibasi bo'ldilar.

Shoira opa nafaqat o'quvchilar, balki shirindan-shakar nabiralarining tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullanib kelyaptilar.

Ma'rifat ularshidek olis va mashaqqatli yo'lda yana ko'p yillar hormay-tolmay odimlashlari, hamisha shogirdlari qurshovida, e'zozida bo'lishlari tilakdoshmiz.

Dilafro'z XUDOYBERDIYEVA.

bilan boqaxonasi sari fidokorona «siylangan», serrik qomatini biroz oralatgan zot - mehri-U hech qachon ajinlari-yu, sochla-oqidan uyalmagan, m a s h a q q a t l i kasidan nolimagan. Chunki sochlariagi har bir

**USTOZ**  
Yetti iqlim sohibi pirdan so'rashdi:  
Kinni ulug' bilib qo'yaylik haykal?  
Olam kitobi-yu sirdan so'rashdi:  
Kimming haykaliga beraylik sayqal?  
Pir turib boshini ohista egdi:  
Dedi: «Ustoz jismiga qo'yingiz haykal». Kitoblar yig'ilib, sirlar jam bo'ldi:  
Dedi: «Ustoz siymiga beringiz sayqal». Va yana so'rashdi zo'r donolardan:  
«Ustozning qarzini uzaylik qanday?»  
Dedilar: «Ustozlar shunday ummonki,  
Qarzin uzolmasliging ravshandir kunday». Mahbuba YOLDOSHEVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
G'uzor tumanidagi  
jahon tillariga ixtisoslashgan  
maktab-internatning 9 - sinf o'quvchisi.

## MAZMUNLI UMR

Har bir inson Olloh tomonidan berilgan buyuk ne'matga ega. O'z umrini atrofidagilar ardog'ida, mazmunli yashab o'tsa, bundan ortiqroq baxt bormi, dunyoda?

Bugun men so'z yuritmoqchi bo'lgan bobojonim - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor va niyoyat-mening suyukli bobojonim ham ana shunday baxtli insonlar sirasiga kiradilar. Afsuski, hozir ular oramizda yo'qlar. Lekin qilgan ibratli ishlari, g'ayrat va shijoatlari, barchaga birday samimi munosabatlari hammamizning yodimizda.

«Quloq qilinganlar safida ham bo'ldim, Ukrainada Vatan tuprog'iga zor kunlarni ham ko'rdim. Lekin ishonch bilan aytu olmanki, men mazmunli umr kechirdim. 6 nafar farzand, 21 nabira, 10 nafar abiraning bobosi bo'ldim», deya biz bilan faxrlanib yurardilar bobojonim doimo. Biz ham bobojonim bilan faxrlanamiz. Hozirgi kunda biz abiralari soni 24 nafarga yetgan. Hammamiz ham ularga munosib bo'lish, ishlarini davom ettirish ishtiyoqida o'qib-izlanyapmiz.

Gulnora ORTIQOVA,  
Toshkent shahar, Sobir Rahimov  
tumanidagi 249 - məktəbning  
11 - «A» sinf o'quvchisi.

Ehtirom  
**BIZNING  
XOLMUROD AKA**

Yaqinda «Otalar so'zi-aqlning ko'zi» kitobini o'qib chiqdim. Undagi məktəb, muallim haqidagi qismi qalbimda iliq taassurot qoldirdi. Bizning Shampan qishlog'imizda joylashgan 18-o'rta umumta'lim məktəbida ham jonkuyar va bilimdon o'qituvchilar talaygina. Ana shunday o'qituvchilaridan biri bizning sinf rahbarimiz Xolmurod aka To'layev bo'ladilar. Məktəbga ilk qadam qo'ygan kunimizdan boshlab, ular qo'limizga qalam tutib, ilmlar eshigi qulfini ochishga ko'maklashdilar. Bizni o'z farzandidek ko'radigan ustozimiz haqida qancha gapirsak, shuncha oz. Yaxshisi, maqolamni bir she'r bilan ifodalay:



Lola TURDIBOYEVA,  
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi  
18-məktəb o'quvchisi.



Har yili o'qituvchilar bayrami arafasida qadrdon maktabimga borishni yoqtiraman. U yerdagi kattakon archalarni, maktab oshxonasini, o'zim o'tirgan partani ko'rib, shu go'shada o'tgan har bir kunimni yod olishga harakat qilaman.

Yaqinda maktabga

borganimda, sinf rahbarimiz Tojiboy aka Yo'ldoshevning vafot etganlarini eshitdim. Tabiatan o'ta quvnoq, kezi kelganda talabchan bo'Igan ustozimiz haqida o'ylarkanman, garchi bizga bir yilgina sinf rahbari bo'Igan bo'lsalar-da, dunyoqarashimizni, fikrlashimizni ancha tiniqlashtirgan, maktab degan go'shada 10 yil umrimizni zoye ketkazmasligimiz uchun faqat izlanishimiz-o'rghanishimiz, kitoblarni kerak bo'lsa titilguncha o'qishimiz kerakligini qayta-qayta uqtirgandilar.

...O'shanda 7-sinfga o'tgandik. An'anaga ko'ra, sinf rahbarlari, o'qishga bir kun qolganda tanishtirilardi. Maktab direktori hamma sinflarning ro'yxatini o'qib chiqdilar-u, negadir bizning sinfimiz qolib ketdi.

-7-sinflarga kim rahbar bo'lishi bugungi pedkengashda hal bo'ladi,-dedilar. Bu tabiiy hol edi. Chunki, maktab bo'yicha eng beodob, o'zlashtirishdan ham ortda qoladigan sinf bizniki bo'lib, o'qituvchilardan hech kim rahbar bo'lismi istashmasdi.

O'qish boshlandi. Oradan ikki kun o'tgach, maktab direktori bizga Tojiboy aka Yo'ldoshev sinf rahbarlik qilishlarini aytib, chiqib ketdilar. Tojiboy aka bizga matematika, geometriya fanlaridan dars berish bilan birga xulqimizni, o'zlashtirishimizni yaxshilash kerakligini ham uqtirib o'tardilar.

-Uyda uchli tufligim bor, bittang qulog'ingni qimirlatsang, o'sha bilan bir tepaman, ketasan «voy-

voy»lab derdilar. Ustozimizning «uchli tuqli»sidan kaltak yeb, «voy-voy»lab ketishimizni ko'z oldimizga keltirganimizdanmi, yaxshi o'qishga harakat qilardik.

yoshlarim quyilib kela boshladi. Shunda Tojiboy akani chindan-da mehribon ustoz ekanliklariga yana bir bor amin bo'ldim.

## UCHLI TUFLIGIM BOR

Ba'zi sinfdoshlarim uch oylab ham maktabga kelishmasdi. O'qituvchilar ularning uylariga qatnayverib, zada bo'lib ketishgandi. Hatto shunday dangasa sinfdoshlarim ham baholarini yaxshilashga jon-dillari bilan tirishishardi. Birinchi chorak yakuniga bag'ishlangan yig'ilishda sinfimiz maktab bo'yicha yaxshi sinflar qatoridan uchinchini o'rinni oldi. Bundan biz ham, ustozlarimiz ham xursand, sinfdoshlarim esa o'zlaricha g'ururlanib ham qo'yishardi.

-Bu safar uchinchini o'rinni oldik, - dedilar ustoz sinfga Kirgach. - Ammo birinchi o'rinni ham olishimiz mumkin. Buning uchun... «Yaxshi o'qish kerak», dedik bir ovozdan.

O'sha kundan boshlab, hammamiz kitobdan bosh ko'tarmadik. O'quv yili oxirida maktab bo'yicha birinchi o'ringa chiqib oldik. Hatto ikkita sinfdoshim olimpiada g'olbi ham bo'lishdi.

Yana bir voqeа hech esimdan chiqmaydi. Huquq fanidan o'qituvchimizning savollariga javob bera olmadim. Shunda ular:

-Ota-onang kolxzochi-da, baribir sen ham kolxzochi bo'lasan, senlardan odam chiqarmidi, -dedilar.

Huquq fani o'qituvchimizning yoshlari katta bo'lgani uchun, hamma ularni hurmat qillardar. Shu payt eshik oldidan o'tib ketayotgan Tojiboy aka:

-I-ye, Zuhreddin aka, kolxzochining bolasini odam emasmi? Hali bu qizim siz bilan mening tushimga kirmagan joylarda ishlaydi, - dedilar.

Bu gapni eshitib, tomonimga bir narsa tiqilib, ko'z

...Maktabni bitirib, kollejga o'qishga kirish arafasida ustozning uylariga bordim. Kirish imtihonlarida matematika, geometriya fanlari bor ekan. To'g'risini aytam, aynan shu fanlarni uncha xushlamasdim. Ustoz menga formulalar yordamida misol va masalalar yechishni, turli chizmalarini erinmay tushuntirib berdilar. Ular bilan xayrashib, tashqariga chiqsam, bir poy tufligim yo'q. Poygakda turgan poayfazzallarni ko'zdan kechirayotsam, ustoz:

-Ha, uchli tufligimni qidirayapsanmi? Sinfdoshlariningga o'xshagan to'polonchilarni tepaverib, julduri chiqib ketgan, kechagina otib yubordim, -dedilar kulib.

-Yo'q, ustoz, o'zimning oyoq kiyimimni qidirayapman,-dedim.

-I-ye, qayoqqa ketibdi, dedilar-u tufligimni qidirishga tushdilar. Ne ko'z bilan ko'raylikki, kichik o'g'illari tufligimni suvgaga to'ldirib o'tirardi. Tojiboy aka o'g'illarini quva ketdilar. Jiqqa ho'l bo'Igan tufligimni olib kelarkanlar:

-Qancha o'quvchilarni tarbiyalaysan-u, uyingdag'i bolangga kuching yetmas ekan, deb qo'ydilar.

-Uyim yaqin-ku, tezda yetib olaman, - dedim ularni xijolatbozlikdan qutqarib.

-Mana, oradan shuncha yil o'tibdi. Tojiboy aka «uchli tuqli»lari bilan cho'chitib yana ko'plab shogirdlar chiqardilar. Ular ham hozirda bir kasning boshini tutib ketishgan. Ustozning biz shogirdlari, ulardan bir umr minnatdormiz.

### Ustoz haqida so'z

*-Farida opa, o'quvchilarining ba'zilari matematika fanini zerikarli, deb hisoblashadi. Shu fanga kirmsadan darsdan qochib ketish hollari ham uchraydi. Sizda mana shunday holatlar bo'Iganmi?*

Har bir o'quvchining ruhiyati har xil bo'ladi. Agar sinfingizda o'titzta o'quvchi bo'lsa, ularning barchasi o'ttz xil xarakterli. O'qituvchi bitta narsani bilishi lozim. Agar o'quvchini hammaning oldida uyaltirsangiz, bu unga boshqacha ta'sir qiladi. Shuning uchun ham darsimda halaqtি bergan, yoxud darsdan qochib ketgan o'quvchilarini alohida chaqirib, tanbeh beraman. Ota-onangni oldiga boraman, deb qo'rqtaman. Bir marta shunday qaytarkan. Gapimga quloq solavermagach, yarim kechada uyiga borganman va dadasi bilan gaplashganman. Bilasizmi, o'sha bolaning dadasi bilan uchrashtaganidan keyin u sinfimdag'i eng yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilardan biriga aylangan.

*-Yutuqlaringiz haqida ham to'xtalsangiz.*

Mening birinchi yutug'im bu shogirdlarimdir. O'qituvchi qachon xursand bo'ladi, bilasizmi? Qachonki uning shogirdlari qanotiga kirma, biror o'quvchisining talaba bo'Iganini eshitsa, ta'lim-tarbiya bergan shogirdlari u haqida to'lib-toshib gapirsa... Bir kuni bozor yonida shundoqqina oldimga mashina kelib to'xtadi. Undan bo'y-basti kelishgan bir yigit tushib:

*-Ustoz meni taniyapsizmi? -dedi. Avvaliga tanimadim. Yaxshilab qarasam, o'zim o'qitgan o'quvchilarimidan bira ekan. Hozir Iqtisodiyot universitetida Magistraturada o'qiyotganmish.*

Sizning tanbehlaringiz bo'lmaganda, bu darajaga yetolmasdim,-deydi. Ko'rdingizmi, bolada xohish bo'lsa bo'ldi, u ertangi kuniga ishonsa albatta tilaklariga yetadi. Yutuqlarimidan yana biri mehnatlarim evaziga bu yil Mustaqillikning 15 yilligi ko'krak nishoni bilan taqdirlardim. Matematika, algebradan o'qituvchilar, Oliy o'quv yurtiga kiruvchilar uchun qo'llanmam nashrdan chiqdi. Mening dars o'tish usulim shaharda ommalashtirilayapti, malaka oshirish institutida shu usulim bo'icha dars o'tayapman. Ish uslubim to'g'risida Respublika ta'lim markazida nutq qilganman. Xullas, bundan ham yaxshi natjalarga erishish uchun intilib, yosh avlodga ko'proq bilim berishga harakat qilayapman.

*-Gazetamiz o'quvchilariga tilaklariningiz.*

Avvalo sog' bo'lishsin. Shu bilan birga farzandlarimiz barkamol, madaniyatli, ma'rifatli inson bo'lib yetishishsin. Eng muhim, insoniy tuyg'ularni sira ham eslaridan chiqarishmasin. Barcha-barchalari baxtimizga omon bo'lishsin.

Sizga ham kelgusi ishlariningda muvaffaqiyatlar tilaymiz. Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat.

*Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.*



*O'TTIZ BOLA O'TTIZ XIL...*

*-Matematika ko'pchilik yoqtirmaydigan fanlar sirasiga kiradi. Sizda bu fanga qiziqish qachon uyg'ongan?*

Dadamlar (joylari jannatda bo'lsin), juda izlanuvchan, intiluvchan odam edilar. Ularning yoshlik davrlari urush vaqtiga to'g'ri kelgani uchun savod chiqara olmaganlar. Ukalarini o'qitib, o'zlar ishlaganlar. Garchi o'qish, yozishni bilmasalar-da, «Ravshanbek», «Go'ro'g'li» dostonlarini shunaqangi aytib berar-mana-man degan baxshi dilarki, ham lol qolardi. Tariixa, adabiyotga juda qiziqardilar. Men o'qib yurgan paytlarimda o'qishimi doim nazorat qilib turardilar. «Axborot», «Yangiliklar»ni muntazam ravishda ko'rib borardilar va men bilan savol-javob qillardilar. Oyimlarning ukalari ham matematikadan dars berardilar. Bir-birimizga topshiriqlar berardik, misol, masalalar yechardik. Tog'amlardan uyalib qolmaslik uchun ham jon-dilim bilan tirishardim.

*-Demak, o'qituvchilik kasbini tanlashingizda ularning ham hissalarini bor ekan-da?*

Shunday desam ham bo'ladi. Yana bir voqeаni aytib beray: o'shanda 8-sinf o'quvchisi edim. Maktabimiz direktori bir kuni sinfimizga kirdilar-da, meni so'radilar va:

-Boshlang'ich sinfning o'qituvchisi ishga kelmabdi, bugun ularga sen dars o'tib turgin, -dedilar. O'shanda bu sinfga 4 soat dars o'tgandim. Shunda direktorimiz: -Sendan zo'r muallim chiqadi, - dedilar. Bu kasbga mehrim o'shanda uyg'ongan bo'lsa kerak, bunday deyishimga sabab, dastlab shifokor bo'lismi orzu qilganman.

*-Ustozlarining haqida nimalar deya olasiz?*

Dastlabki ta'limni maktabda O'rin aka Qirg'izboyevdan olganman. Juda talabchan ustoz edilar. Keyin ToshDU (hozirgi O'zMU)da Shavkat aka Alimov, Shavkat aka Ayupov singari ustozlarim yordam berishdi. Eng yaqin ko'makdoshim, umr yo'ldoshim Isalomov Bozor Ismoilovich bo'ladi. Ikki qizim Moliya intitutida, bitta qizim bu yil Pedagogika kollejining 1-kurs talabasi bo'ldi. O'g'lim 11-sinfda o'qiydi. Matematikani juda yaxshi ko'radi.

Soch-soqollariga  
qirov qo'nib, 80  
yoshni qoralagan  
bo bojoni  
daraxtlarni

odamlarga o'xshatadilar. Razm solib kuzatsam,  
ba'zilari baquvvat, ba'zilari serviqor, yana  
boshqalari nimjonroq bo'lgan yashil do'starlarimiz  
haqiqatan ham biz odamlarga o'xshab ketisharkan.

-Bobojon, ularni bizdan ajratib turadigan  
ildizlari bor-ku?! Biz insonlarda esa tuproqqa  
chirmashib ketgan ildiz yo'q, -dedim  
ajablanib.

-Bekor gap, biz  
insonlarda ham ildizlar  
bor. Faqat bu ko'z bilan  
ilg'ab bo'lmaydigan qalb  
ildizlari, qizalog'im,-  
dedilar bobojonim.-O'z  
tug'ilgan yeringdan qancha  
uzoq ketsang, ana shu  
ildizlar shuncha tarang-  
lashib, qalbga og'riq bera-  
veradi, seni ortga chorlay-  
veradi, nuridiydam.

Eh-ha, aytgancha men hozir  
so'lim, ko'rkm Chirchiq s h a h r i d a  
yashayman. To'rt tomoni tog'lar, daryolar bilan  
o'ralgan bu shahar men uchun juda qadrli. Ammo  
qalbim qafasga tushgan qush kabi qaynoq cho'l  
hududida joylashgan qadimiy Buxoroga  
talpinaveradi. Moziya tengdosh minoralar,

# SAKSOVULGA AYLANIB QOLSAM...



madrasalar, masjidlarning har bir naqshida bobolarim  
siymosi aks etganday. Qadrond qishlog'imning chang  
ko'chalariga dunyo go'zalligi bas kelmaydi. Devorlari  
nurab qolgan hovlimizda meni sog'inch iztirobi  
qiynamaydi.

Uyimiz to'ridagi tol beshikni  
ko'rsam, ko'nglim taskin  
topadi. Axir, ana shulardan  
boshlanadi-da, Vatan!

-Bular sening Vatan ichra  
mo'jaz vatanlaring,-deydilar  
bobojonim hassalarini do'-  
qillatib qabriston ziyoratiga  
otlanar ekanlar. -Olloh  
inson xokini tuproqdan  
yaratib, tuproqqa buyur-  
gan. Shuning uchun ham  
Vatan qabristondan  
boshlanadi, oppog'im!

Ko'z oldimda beix-  
tiyor saksovul daraxti gavdalandi. Har  
qatra suv to'tiyo hisoblangan qaynoq qumli yerda barq  
urib o'sadi. O'zga tuproq unga begona. Uni qum  
to'fonlari-yu badjahl cho'l shamollari cho'chita  
olmaydi. Inson uchun ham ota-bobolari yashab o'tgan,  
hoki qo'nim topgan tuproqdan aziz narsa bormi  
dunyoda?!

Qancha-qancha botirlar jon berishgan bir siqim yurt

**Vatan ichra mo'jaz Vatanim**

tuprog'ini ko'ksiga bosib.

-Yetimlikning eng  
yomoni ota-onadan ayri-  
lish emas, ona  
Vatandan ayro  
muhojir  
yashash, -  
deydir  
bodom.

S h u n i n g  
uchun ham Bu-  
xoroda dadam-  
ning nomlariga  
hovli-joy qurdirishga bosh bo'lganlar.

-Qariganingizda qondoshlaringiz oldida  
bo'lsangiz, ruhim tinch bo'ladi bolalarim, - deydilar.  
-Har bir inson o'z xokiga buyursin!

Agar menga daraxt bo'lib tug'ilishga imkon  
berilganda, men saksovul bo'lib tug'ilardim.  
Buxoroning qaynoq qum tuprog'iga shunchalik  
chuqur ildiz otardimki, qirg'inbarot qurg'oqchiligi  
u isyonkor garmsellor ham o'z tuprog'imdan yilib  
tashlolmasdilar. Biz jannatni orzu qilamiz. Jannat  
o'z ona tuprog'imiz-ku, axir!

**Shahnoza RAVSHANOVA,  
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi  
2 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.**

## O'ZBEKISTONIM MENING

Vatan! Noming o'ziyoq qalblarimizda allanechuk hayajon uyg'otadigan  
hilqat. Uning nomi yuraklarni entiktiruvchi go'dak kulgu sidek yoqimi. Vatan -  
olislardan boqib turgan, bolasining jonomonligini Tangridan tilaguvchi Xizr bobo.  
Duogo'y onamdayin, soyabonim otamdayin bag'ri keng. Dunyolarni zabit etajak  
ilmu shuurga ega bo'lgan zukko-yu ahli donishlar o'lkasi.

Ko'klamda diydoriga to'ymoqlik ilinjida buvimning ko'zlar, qalblaridagi  
ma'sum boychechakni ardoqlayotgan shirin tuyg'udir u. Har bahor pallasi ariq  
labida unib, binafsha bilan dugona tutigan beozorim - yalpiz.

Vatan qudratini tuymoq istasang, ajdodlar bino etgan, har g'ishtida tarix surati  
yashiringan chinorlarni ko'r. Vatan ana shu qadim chinorlardek salobath va hamisha  
navqiron.

Vatan tuyg'usini mehribonim - onajonim islarda, sochlarni jamalak qilib  
o'rgan qadoq qo'llarida, har bahor yerga ming bor egilib, ko'chat o'tqazmasa  
ko'ngli to'lmaydigan bog'bon otamning nuroniy chehrasida his etaman men.  
Ko'klam chog'i boychechakni birinchi bo'lib buvimga ko'rsatish uchun oshiqqan  
damlarimda, onam yopgan sedanali issiq kulchalarda sezganman Vatan nafasini.

O'zbekiston bag'rida ne-ne daholarni allalamadi. Amir Temurdek Sohibqironi,  
dunyoni qalami ila zabit etgan Alisheri, farzandlari saodati uchun jondan kechgan  
Shiroqlari, ayol boshi bilan xalqqa boshchilik qilgan, hatto farzand joni va Vatan  
taqdidi ko'ndalang turganda ham onalik mehridan kechib, farzandlik burchini  
yelkaga ortib, hurriyatni tanlagan To'marisi bo'lsa ham uni dunyo bexabarga,  
savodsiga chiqardilar.

Holbuki, bu o'lkada dunyoni tebratgan yuksak salohiyat, shijoyat sohiblari  
Ibn Sino, Beruniy, Forobiy zamonalridayoq, o'zbekning kim ekanligini, uning  
"palagi toza" ekanligini bilsalar-da, tan olishni istamadilar. Navoiy avlodlari bugun,  
ozodlik o'stobi porlagan zamonda erk havosidan to'yib-to'yib simirmoqdalar.

Ularning ko'zlarida yoshlik shijoati, ertangi kun mas'uliyati namoyon.  
O'zbekning erka o'g'lonlari olim-u fozi bobokalonlari izidan borib/dunyo  
kezmoqdalar. Onam bo'lib boshim silagan bag'ni otash/bu o'lda farzandi ekanimdan  
g'ururim cheksiz. Vatan jannatmonand bag'ri bahordir. Hindistonda shohlik  
tojidan-da topolmagan zavq-u shavqni Andijondan keltirilgan qovunning bir  
tilimidan topgan mirzo Boburning «Vatan» deya entikkani balki shundandir...

Bu Vatanning xarsang toshlari-yu kimsasiz biyobonlarigacha bizga jonday  
qadrond.

Ilohim, Vatanim istiqboli nurli bo'lsin!



## TABIATNI ASRASH BURCHIMIZ

O'zbekistondagi tog' tizmalari yonbag'rida yashovchi hayvonlarning  
ko'pchiligi "Qizil kitob"ga kiritilgandi. Hozir ular orasidan 63 ta umurtqali  
hayvon, 22 ta sut emizuvchi, 31 ta qush, 5 ta sudralib yuruvchi jonivor, 5 ta  
baliq turi endi yo'q. 400 xil o'simlik turidan 163 tasi yo'qolish arafasida.  
Bolalar, bu holga bamaylixotir qarab bo'lmaydi.

Daraxtzorlar, archazorlarni ko'paytirishimiz, tuprog'imizning tarkibini  
o'zgartirishimiz, qushlar va hayvonlarni avaylab-asrashimiz lozim. Orol  
dengizi yil sayin qurib boryapti. Essiz, unga qarab achinib ketaman, bir  
vaqtlar bu daryoda qancha hayvonlar va qushlar yashashardi-ya...

Qaniyi, daryo va ko'llarimiz suvi avvalgidek musaffo bo'lib, chor-atrof  
gullarga burkanib tursa, adirlar yashnab, lolalar ochilib tursa.

Shunda:

Xush ovoz bulbullar ta'zimga kelar,  
Tikonlar gul bo'lib, nazmga kelar.  
Dunyoda bor ranglar bazmga kelar,  
Tuproq tilga kirganda.

Malika RAHMONBEKOVA.

Имрүзхө мүштариёни зиёди рўзномаи «Тонг юлдузи» бо мактубҳои зиёде турогашат карда, аз ҳаётин худ нақл мекунанд. Машҳир мешавад, ки тегодги хонандагони тоғикзабони рўзнома рўз аз рўз меафзояд. Мактубҳои онҳоро варақ зада, ба ҳуносасе оладем, ки дунёни инкара танзуми шумоён намоем. Нависандагони ин мактубҳо аз деҳаи Шоботи ноҳияи Пешкӯи вилояти Бухоро табошанд.

Донишомӯзони азиз! Шумоёнро низ ба мукомиба даввати менамоем. Агар шебрӯ афсона, мақолаву ҳикояҳои беҳтарини худро ифсон намоед, бо талкуншият пазирофта, ҳаминан дар шумораҳои оянда ҷой хоҳем доғ.

## МАКТУБ БА РЕДАКСИЯ



Рўзномаи азиз! Мо як гурӯҳ хонандагон аз деҳаи Шоботи ноҳияи Пешкӯи вилояти Бухоро мебошем. Дар вақтҳои фориғ аз дарс тез-тез дар хонаи ҳамдигар вомехӯрем. Дар чунин гаштакҳо бо тоқидӯзи ва зардӯзи машғул шуда, рақсу бози меораем, пилла ҷамъ мекунем. Дар фунучини ангур

низ ёри мерасонем. Мо чунин мешуморем, ки ҳаёти деҳа аз шаҳр дила шавқовартар аст. Чунки одамон аз ҳаёти ҳамдигар пурра бархӯрдор ҳастанд, бомехру оқибатанд. Дар рўзҳои гаштак морӯзномаи дўстлоштани худ «Тонг юлдузи»-ро низ варақ мезанем, аз ҳаёти ҳамсолони худ мушда мегирем. Аз он мамнун гаштем, ки дар ин рўзнома акнун шеъру мақолаҳо ва ҳикояву афсонаҳо бо забони тоҷики низ хонда метавонем. Бинобар ин, зарур шуморидем, ки ин хурсандии худро аз тариқи рўзнома баён кунем. Ба шумоён кормандони рўзнома барори кор меҳоҳем. Умед дорем, ки дар оянда бо маводҳои пурмазмуни худ хонандагони тоҷики Бухороро баҳраманд мегардонед.

Гулноза ШОДИЕВА, Онабиби БОЗОРОВА,  
Мадина ШИРИНОВА, Шаҳодат АҲРОРОВА.

## ПАРВОНА

(Афсона)

Адаш ИСТАД

Парвона вақте ҷашм кушоду худро шиноҳт, ҷаҳон пардаи сиёҳи шаб ба сар кашида буд. Ў дар болои кӯл парвоз карда, пеш аз ҳама акси шукуфазори ситораҳоро дар синаи оби кӯл бидид ва ҷароғаки меҳр дар дилаш фурӯзон шуд. Парвона ҳис кард, ки хеле ширин аст ин ҷароғи меҳр. Фикр намуд, ки ин ҷаҳони торик ҷандон бад нест, агар чунин ситораҳои зебою дилрабо дошта бошад.

Ў поёнтар фуромад, ки ситораҳои кӯлро аз наздик бубинад, вале мормоҳие боло ҷаҳида, таҳдида хӯрдани ў кард.

Парвона ба суръ боло рафт ва ба осмон нигариста дид, ки ситораҳои оби он ҷо равшанар метобанд.

Парвона хеле ба боло парид, вале ба осмон парида натавонист. «Қувватам нарасид» — фикр кард ў, вақте ки поён мефуромад.

Ў дар шоҳаи гуле нишаст ва дид, ки Шабпарак низ онҷост. Парвона дир-дир ларзид.

— Натарс, — гуфт ба ў Шабпарак. — Ман туро намехӯрам. Аз мушҳои паррон ва гукҳо эҳтиёт шав.

— Боз аз чӣ эҳтиёт шавам? — пурсид Парвона, ба назарааш ин дунёни торик пур аз душман намуд.

— Намедонам, — гуфт Шабпарак, — ин пардаи шаб чӣ сирҳое дорад. Ту Парвона ҳаст. Яъне зодаи ситораҳои осмон. Ба рӯшани наздик бош. Он ҷо ҳамқавму ҳамсолони худро мейёбӣ.

Парвона каме дам гирифту дар болои марғзор парвоз кард. Дар байни алафҳо ҷароғаке тофт ва ў наздик шуда, кирми шабтобро дид. Кирме, ки нураш гармие надошт. Парвона дар дили худ сардиро ҳис намуд, як ларзид ва тарсида аз он ҷо

## ШЕБРУ АФСОНА ХОҲЕМ

Муштариёни дерини рўзномаи «Тонг юлдузи» Шодиев Фарҳоди буҳорой ҳоло аз замони мактабхонӣ ро дўст медорад. таҳсил кунад ҳам, рўзномаро варақ зада, редаксия фаъолона қариби дар саҳифаҳои мақолаҳоро ба забони омадам», — мена-висад рўзҳои дароз дар замин дехқони кунад ҳам, номахони низ дорад. ширизабони мо ва хоҳаракони хурдсоли ман зиёдтар чоп кунед, ки ба илтимос мекунанд Фарҳод.



Имрӯз ў дар коллеч валие ҳоло ҳам саҳифаҳои бо кормандони мӯкотиба мекунад. «Ба рўзнома шеъру тоҷики хонда ба ваҷд ў. «Гарчанде оилаи морақи ҷабин ректа, фурсати рўз-Барои ҳамин ҷияни додаракону шеъру афсонаҳоро онҳо хонда диҳем», —

## Саъдии Шерозӣ

Ду дарвеши хурросони шарики сӯҳбати якдигар сафар карданд: яке заиф буд, ки ҳар ду шаб ифтор мекард ва дигаре қавӣ, ки рӯзе се бор меҳӯрд. Қазоро бар дари шаҳре ба тӯҳмати ҷосуси гирифтор омаданд ва ҳар дуро бар хонае гирифтор карданду дар ба гил бароварданд. Баъд аз ду ҳафта маълум шуд,

бегуноҳанд. Қавиро диданд мурда, заиф ҷон ба саломат бурд. Дар аҷаб монданд. Ҳакиме гуфт: «Хилофи ин аҷаб мебуд. Он яке бисёрхор (пурхӯр) буд, тоқати бенавоӣ наёвард, ба саҳти ҳалок шуд ва ин дигар хештандор буд, лоҷарам бар одати хешан сабр карду ба саломат бимонд:

Чу кам хӯрдан табиат шуд қасеро, Чу саҳти пешаш ояд, саҳу гирад В-агар таңпарвар аст андар фароҳӣ, Чу танғи бинад, аз саҳти бимирад!

## ЧУСТУҶУ

Бачае хотирпарешону саросема аз рафиқаш пурсид:  
— Шерро дидӣ?  
— Диам.  
— Кай?

- Навакак.
- Дар кучо?
- Дар боби ҳайвонот.
- Ваҳ! Чи кор мекард?
- Ҳеч... Дар қафас аст.
- Э-э-э-э-э!
- Ман додарамро мекобам...

## ШОЯД БИСТ БОШАД?

Панҷ қарат панҷ ҷанд мешавад? — пурсид муаллим?  
— Биступанҷ, — ҷавоб дод ҳонанда.

Муаллим пурсид:  
— Аниқ медонӣ, ки биступанҷ аст?

Ҳонанда китғ дарҳам кашида ҷавоб дод:

— Надонистам, шояд дар кӯтарабозор бист бошад?



уд дур парид. Парвона парвоз кард ва ба атроф бодиқат ин гариста ҷароғистонеро дид. Ў ба ҳамон сӯ парида қасри илхӯчраеро ёфт... Дар ҳар ҳуҷраи он қаср як қандили булӯри илҷароғ месӯҳт.

Дар як толори қалоне шоҳу вазирон нишаста кабоби бедонаву ҷабк меҳӯрданд. Бӯй гӯшту дуду пари сӯҳта ба димоғ мезад. Аз ирезаи ҳуҷрае салои дашноми зане меомад, ки дуҳтарашро мезад. Йар зиндонҳои қаср асирон оҳу нола доштанд. Қасри равшани оулурини ҷилҳӯчраи қандилҳояш ҷилҷароғ ба назари Парвона тира намуд. Ва ў боз дар ҷустуҷӯи нур ба осмон парид.

Ҳеле баланд шуд, ҷашм ба ҷор сӯи замин афқанд ва дур аз қаср шӯълаи хираи шамъе гарм ба назарааш тофт. Парвона ба он ҷо, ки шамъ месӯҳт, биштофт. Вақте ки наздик омад, чунин манзараро дид:

Дар шамъони мисин шамъи борике месӯҳт. Мӯйсафеди нуронӣ дар даст қалам, дар пеш коғази сафед дошту андешаманд назди шамъ нишаста буд. Шоире буд. Шоирни ришафед гоҳе байтеро сурудвор форам меҳонду гоҳ гӯш ба овози чирчиракҳо медод.

Парвона дар кунҷе нишаста ўро наззора мекард. Ин ҷо парвонаҳои дигар низ пайдо шуданд, парвонаҳои зебое, ки гирди шамъ мепариданду аз бозёғти шамъ шодмонӣ доштанд.

Вақте ки умри онҳо ба охир мерасид, худро ба оташи шамъ зада месӯҳтанд, то ки ҷисмашон тӯъмаи гукҳо ё мушҳои паррон нагардад.

Шоир бошад, дар гоҳ ба ин сӯхтанҳо нигоҳ мекард ва чизе ба коғаз менавист. Эҳтимол қисса ба шамъ ошиқ шудани Парвонаро...

## TEGMAGANGA TEGMAGIN

Buvim bilan yana yo'lgan tushdik. Velosipedimni haydab oldinga o'tib ketdim. Uzoq ketib qolibman, buvim shoshilmay yur, mashina kelib qoladi, deb chaqirdilar. Men yana shutezlikda orqaga - buvumning yoniga boraman debman-u, rulimni temir darvozal uyg burib yuboribman. Shu payt darvoza tagidan kichkina sariq kuchukcha chiqib oyog'imga yopishdi. Yaxshiyam og'ir tuqli kiyganim. Uni ayamay bi ir tepdim. Chiqsan joyiga akillab kirib ketdi-yu, uydan bir kennoyi chopib chiqib:

-Qopib oldimi? Qani oyog'ingni ko'rsat-chi, dedi.

-Yo'q, qopmadi.

-Qopibdi-ku. Paypog'ingdan oyog'ingga tishining izi tushib qolibdi. Buvumning vahimasidan kennoyi tez uyiga kirib ketdi-da, kattakon kir sovun olib chiqib oyog'imga surtib qo'yib dedi: -O'zing ham tegmaganga tegmagine da.

## AMAKIMNING «GRAFI»

Biz yana yo'lgan tushdik. Buvim: -Kuchuklardan qo'rqlaydigan dadangga o'xshabsan-da, deb gapirib ketilar. -Dadang ham «Vah-vah» deb birovlarning kuchugini chaqirib olib, boshini silaydi. Bir kuni uyimizga dumalaoq kuchuk bolasi tutib keldi.

-Ko'chada adashib qolgan ekan, boqaylik, oyi, deb yalindi. -Mayli, dedim. Hojiakbar amaking bundan juda sevinib ketdi va bizga hali bu kuchuk juda kichik ekanini, osh emas, sut ichirish kerakligini aytdi. Biz gapiga ishonmadik. Chunki kuchuk katta ko'rindida.

-Katta emas, zoti shunaqa.

Bir pasda chug'urlashib unga nom tanlay ketishdi.

-Sharik, yo'q, shariklar kichkina bo'ladi. Sharga o'xshagan dumalaoq bo'lgani bilan, u yaqinda o'sib, kattakon bo'lib ketadi.

-Tarzan.

-Yo'q. Tarzan degan Otabekning laycha kuchugi bor. Graf qo'yamiz, dedi amaking niyoyat. Graf... Bilmadim, bu nomni qayoqdan o'ylab topdi, lekin Graf keyinchalik o'z salobatiyu, xatti-harakatlari bilan graflarga o'xshab ketdi.



### (Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

-Buv, Graf qani?

-O'ldi. Amaking olamdan o'tgan kunlarda yo'qolib qoldi. Qidirsak, yerto'laga tushib yotgan ekan. Ozib-to'zib ketibdi. Hech narsa yemadi, qancha urinmaylik, baribir og'ziga hech nima solmadi. Yota-yota bir kuni yo'qolib qoldi. Shu ketgancha boshqa ko'rmadik.

-Balki amaking oldiga borib olgandir?

-Shunaqa deb o'yadik. Bir kuni o'g'limning boshiga borsak... it izlari turardi. O'sha Grafning izlari bo'lsa kerak, deb yig'ladik. Yaxshi it o'ligini egasiga ko'rsatmas ekan.

O'ziyam aqli edi-da. O'g'lim stolda ovqat esa, kallasini stoliga yetkazib, odamlardek yonida tik o'tirardi. Juda mehr qo'ygandi unga Hojiakbar amaking ham. Cho'miltirib, yunglarini tarardi. Vajohatidan hamma uyimizga o'ylab kirardi. Shuning uchun men uni yoqtirmasdim. Yo'qot, derdim. Bir kuni rostdan ham yo'qolib qoldi. Ikki kecha-kunduz qidirib, ikki-uch mahalladagi kuchuklarni tekshirib chiqdi-yov. Nihoyat, aziz odamini topgandek quvonib, Grafi bilan kirib keldi.

-Kuchuk so'yib sotadigan Qora Hasannikidan topdim. Endi so'yaman, deb pichog'ini qayrab, kuchugimni shoxga ilib qo'ygan ekan.

-Bo'Imagan gapni gapirma...

-Nega bo'Imagan ekan? Rostdan ham o'sha Hasan kuchuklarni tutib, so'yib sotadi. Grafimizni narigi mahallagi Ahmaddan besh yuz so'mga sotib olibdi. «Meni kechir», deb rosa yalindi. Yaxshiyam, vaqtida boribman.

-Yur, yur, yur, derdi ukasi, sening dadang Abduvohid unga. -Borib Ahmadni urib kelamiz.

-Nima qilasan, urush ko'tarib? Graf tirik qolganiga shukr qilsang-chi.

-Buvi, - so'rayman men. -Amakim shukr qilsang-chi, dedilarmi?

-Ha.

-Shukr, Shukr amakimmi?

Men Abrorning amakisini so'radim. Uning oti Abdushukur. Ollohnning ming bir nomlardan biri bu. Shukur esa, Ollohga rahmat, degani.

Men buvumning hamma gaplarini eshitmay, Hojiakbar amakim haqida o'ylab ketdim. Qaniydi, mening itim ham odamlardek yonimda o'-o'tirsa..

-Hoy, oyog'ingni ostiga qara. Non ushog'ini bosib o'tib ketayapsan-ku.

Buvumning gapidan sergaklanib, yerga qaradim. Rostdan ham velosipedimni old g'ildiragi pechenyeni uvalatib, ustidan yurib o'tib ketgandi. Buvim darrov uni olib, ariqqa tashlab yubordilar. Keyin: -Senga o'xshagan beparvo bir bola yerga tashlab ketgandirda, -dedilar. -Non aziz bolam, Non-aziz.

Buvumning bir dugonasi bir boyga kelin bo'lib tushgan ekan. Yeyar-ichari joyida bo'lsayam, qotgan nonni oqizoq qilib yegan ariqchasini sog'inarkan. Boynikidan yashirinib, boshiga yopqich

yopib kelib, ariqchada oqqan nonga to'yib ketarkan..

-Bu ariqchaga tushib ketgan narsani yana qayta toza suvda chayib olish kerak. Ha mayli, bu suv oqib-oqib soyga, soydan daryolarga borib qolar. Bاليقىلار yer, o'sha pechenyeni.

-Buvi, nega nonni bosib bo'lmaydi? Ayt-madingiz-ku.

-Bilasan-ku, non rizq-ro'zimiz. Non bo'lmasa yashab bo'larkanmi? Uni aziz qilishimiz kerak. Aziz qilmasak...

Buvim negadir yana jim bo'lib qoldilar. Men ham ji-im turdim-da, baribir chiday olmadim.

-Buvi. Hoy buvi... aymaysizmi?

-Nimani?

-Nonni aziz qilmasak, nima bo'lishini. Uf-f. Sen gapdon bolaga tinmay gapirib ketishim kerak ekan-da.

## YOZILMAGAN KITOB



Umida ABDUAZIMOVA.



## NEGA YER QIMIRLADI?

Bolaligim Toshkentning Qashqar mahallasida o'tgan. Bu yerda o'zbek, o'ris, yevrey, uyg'ular yashardi. Bir kuni otam hojatga kirib, titrab-qashab chiqdilar.

-Endi ko'chamiz, endi... Bu kirdi-chiqdilarga chiday olmayman. Pichoq borib suyakka taqaldi.

Onam: - Hay, dadasi, o'zingizni bosing, -deb ancha gapirdilar. Bir-ikki biznikiga kirib-chiqadigan qo'shnilariniga ham kirib-chiqdilar. Baribir, vaqt kelib kichik hovlimizni sotib, Bodomzorga ko'chib ketdik. Yer qimirlaganda 7-sinfda o'qirdim. Otam peshonasiga urib: - Ana, aytmadimmi, zilzila markazi aynan Qashqar mahallasi ekan-ku, derdilar. Hatto hojatxonanisigacha non ushoqlari kirgan yerda yer qimirlaydi-da...

(Davomi bor).

# EZGU ISHLARGA BOSH-QOSH

Oramizda shunday insonlar borki, ular umrlarining oxirigacha hammaga yaxshilik qilib yashashga harakat qiladilar.

Bunday odamlar sirasiga ustozlarimizning ham kirishi shubhasizdir.

Ahmadjon aka Jo'raqulov asli buxorolik. ToshDUNing tarix fakultetini bitirib, dastlab SAMPIda, so'ng Qibray iqtisod kollejida o'qituvchilik qilib, rahbarlik lavozimigacha ko'tarildilar. Ustozlari Shorasul Ahmedov va Berdiqul Noraliyevlardan o'rganganlarini Dilshod Ochilov, Bahodir To'rayev, Oqila Nabiyeva, Shavkat Ahmedov, Rashid Yaxshimurodov singari shogirdlariga o'rgatib kelayaptilar. Bir kollejda 30 yildan buyon ishlab kelmoqdalar. Bir mahallada 35 yildan buyon yashab, qanchadan-qancha yoshlarga murabbiylik qilganlar, to'g'ri yo'l ko'rsatganlar.

**Ibrat**



Mahallang tinch, yurting tinch, deyishadi. Shuning uchun ham mahalla tinchligi va osoyishtaligi yo'lida jon kuydirayotgan bu insonni hamma hurmat qiladi,

uni o'zlariga bosh bilishadi. Chunki

Ahmadjon aka shu mahallada o'tadigan to'y-u ma'rakalar, xasharu tantanalarda hamisha bel bog'lab turadilar. Turmush o'rtoqlari Farog'at opa bilan ikki qiz, bir o'g'ilni voyaga yetkazib, nabiralar ardog'ida tinch-totuv hayot kechiryaptilar.

U kishining: «Yuksalish o'z-o'zidan, birdaniga bo'lmaydi, bunday rivojlanishga imkon qadar har bir inson o'z hissasini qo'shsa va bu bilan faxrlansa shuning o'zi baxtdir», - degan gaplari yoshlarga bir umrlik saboq bo'lgusidir. Yuzlaridan mehr nuri yog'ib turgan bu inson ko'plab shogirdlar yetishtirishdan aslo charchamasinlar.

**NAZIRA.**



*Suratdag'i mana bu ko'zlar  
kulib turgan bolakayning ismi  
Alisher. Endigina 3 yoshga to'lgan bo'lsa-da,  
ismi jismiga monandligini anglash mushkul  
emas: rasm chizadi, qo'shiq aytadi, 100 gacha  
sanashni biladi, yoqimli musiqalarni berilib  
tinglaydi, yod olgan she'rlarini biyron-biyron aytib,  
o'zi qatnaydigan 387-bog'cha kichkintoylarini  
ham, bog'cha opalarini ham lol qoldiradi.*

*Yana biror yillardan so'ng u mitti-mitti  
she'rlar qoralasa, hecham ajablanmang.*

*Axir unga kimning ismi  
qo'yilgan?!*

## ONA TILIM

Ona tili darsida o'qituvchimiz:

-Bolalar, siz o'z tilingizda to'g'ri gapirishni o'rganing! Buning uchun shoshmay, fikrni jamlab gapirish kerak. Nutqingizda chiroqli so'zлarni ishlating. Shunday qilsangiz, sizni hamma tushunadi, eshitib, hatto zavqlanadi, -dedilar.

Biz shunday gapirishni mashq qildik. O'qituvchimiz nutqimizni eshitib, xursand bo'ldilar va:

-Ona tilimiz juda go'zal va boy til-a? -deb qo'ydilar mammuniyat bilan.



Maftuna JUR'ATBEK qizi,  
Respublika Nafis san'at  
maktabining 3 - sinf o'quvchisi.

**Da'vat**

### SHE'R QACHON YOZILADI?

*Bolalikda yozar edim she'r,  
Yuragimda ajib tuyg'ular.  
Meni olib uchardi ko'kka,  
Bu dunyoga sig'mas orzular.*

*Yashirardim yozganlarimni,  
Bular faqat meniki, derdim,  
Derazaning tokchasida jim,  
Yozilardi har kuni she'rim.*

*Ba'zan opam olib she'rimni,  
O'qib berar edi barchaga,  
Ne uchundir shunda yuragim,  
Bo'linardi parcha-parchaga.*

*Uyda shoir, desalar meni,  
Yig'lar edim bilmayin nega?  
To hanuzkim mening qalbinga,  
O'sha yozgan she'rlarim ega.*

**MA'MURA.**

Om yurting - olin bezining  
**TONG  
yulduzi**

**BOSH MUHARRIR:**

**Umida**

**ABDUAZIMOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq Ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro xayriya jamg'armasi ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV  
(«Kamolot» YoIH markaziy kengashi raisi vazifasini bajaruvchi),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh muharrir o'rinnbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV  
(Andijon viloyati, Xalq Ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq Ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

**(Bosh muharrir o'rinnbosari),**

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq Ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida

022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

**«O'zbekiston»**

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

**«O'zbekiston»**

nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limga terib sahilandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

**Adadi - 17626**

**Buyurtma N: J 2842**

Dizayner va sahilafolchi:

**Fazliddin**

**SHAYADGAROV**

Navbatchi:

**Jamila**

**ERDONOVA**

Rassom:

**Nodira MIRZAYEVA**

Manzilimiz:

**700129,**

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./faks:

(99871) 144-38-10